

URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.01/2025.27.12.Ped.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

QODIROVA GULI MARSELOVNA

**UMUMTA'LIM MAKTABLARINING 5-7-SINFLARIDA JADID
SHE'RIYATINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(A.AVLONIY VA H.H.NIYOZIY SHE'RIYATI MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek adabiyoti)

**PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Urganch – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Qodirova Guli Marselovna

Umumta’lim maktablarining 5-7-sinflarida jadid she’riyatini o‘qitish metodikasini takomillashtirish (A.Avloniy va H.Niyoziy she’riyati misolida).....5

Кадырова Гули Марселовна

Совершенствование методики преподавания поэзии джадидской поэзии в 5-7 классах средних школ (на примере поэзии А.Авлони и Х.Х.Ниязи).....23

Kodirova Guli Marselovna

Improving the methodology of teaching Jadid poetry in grades 5-7 of secondary schools (on the example of the poetry of A. Avloni and H.H. Niyazi).....45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works49

URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.01/2025.27.12.Ped.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

QODIROVA GULI MARSELOVNA

**UMUMTA'LIM MAKTABLARINING 5-7-SINFLARIDA JADID
SHE'RIYATINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(A.AVLONIY VA H.H.NIYOZIY SHE'RIYATI MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek adabiyoti)

**PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Urganch – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiyasi komissiyasida B2024.3.PhD/Ped8215 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.urspi.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Jurayeva Gulnoza Axmatovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar: Saidova Mohinur Jonpo'latovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Murodov Adham Ilhom o'g'li
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)


Yetakchi tashkilot: Samarqand davlat pedagogika instituti


Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.01/2025.27.12.Ped.12.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 – yil “29” aprel soat 13 : 00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, Gurlan ko'chasi, 1-A uy) Tel.: (99862) 226-37-87; faks: (99862) 226-37-87; e-mail: study_info@urspi.uz.


Dissertatsiya bilan Urganch davlat pedagogika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (6 - raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, Gurlan ko'chasi, 1-A uy) Tel.: (99862) 226-37-87; faks: (99862) 226-37-87. e-mail: arm@urspi.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 - yil “13” aprel kuni tarqatildi.
(2026 - yil “13” aprel da 6 raqamli reyestr bayonnomasi).




F.R. Madraximova
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d. (DSc), professor


T.T. Absalamov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.d. (PhD), dotsent


E.I. Ro'ziyev
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kechayotgan ma'naviy-mafkuraviy inqiroz holatida har bir millat muayyan davr va makonda ma'naviy taraqqiyotsiz yaxshilik maqsadiga erisha olmasligi anglashilmoqda. O'z kelajagiga befarq bo'lmagan har qaysi davlat milliy o'zligini saqlab qolishga intilayotgani bejiz emas. Ajdodlar tarixidan munosib xulosa chiqarib, kelajakka teran nazar tashlay oladigan millatgina bu g'oyaviy bo'hronlarda omon qola oladi. Yoshlarning bilimi, salohiyati, ishtiyoqi va yangilikka intiluvchanligi har bir davlatning kelajagi, uning taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan sanaladi. Bu borada esa adabiyot – so'z san'ati asosiy qalqon va quroldir. Adabiyot ta'limining muhim vazifasi ajdodlar dahosiga hurmat bilan qaraydigan, vatanparvar, millatsevar, chin insoniy fazilatlariga ega shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Dunyo ilm-fani qanchalik taraqqiy etmasin, texnologiyalar rivoji naqadar yuksalmasin insonning ma'naviy olami va tarbiyasiga bo'lgan e'tibor oshib boraveradi. Shu bois yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga e'tibor ustuvor vazifaga aylandi. Bugungi kunda jadidlar falsafasini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan ko'plab ilmiy-nazariy va amaliy-fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, ma'rifatparvarlarning jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlantirish, demokratik taraqqiyot modellarini aniqlash, milliy o'zlikni anglash, ma'rifatparvarlik g'oyalarining yoshlar tarbiyasidagi o'rnini tadqiq qilish, mamlakatni siyosiy yuksaltirishga doir dasturlarning taraqqiyotni ta'minlovchi ahamiyatini tahlil qilishning metodologik asoslariga oid olib borilayotgan tadqiqotlar muhim ilmiy ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda jadidlar faoliyatini tadqiq qilish barobarida ularning shonli hayot yo'lini, yirik ma'naviy merosini yosh avlodga o'rgatish ham muhim vazifalaridan biridir. Zotan, "biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvarlari merosini, ma'naviy xazinasini qancha ko'p o'rgansak, qancha ko'p idrok etsak, bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topa olamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi kundagi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadilar"¹. Shu ma'noda jadid namoyandalari ijodini umumta'lim maktablarida o'qitish va ularning ibratli umr yo'li, ma'rifatparvarlik g'oyalarini yoshlarga tushuntirish pirovard vazifadir. Adabiy ta'limda jadid she'riyatini ilmiy o'rganish, adabiyot darslarida jadid shoirlar she'rlarini badiiy tahlil qilish usul va vositalarini aniqlash mazkur tadqiqot ishining zarurati va dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-iyuldagi PF-6260-son "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, shuningdek, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari va 2020-yil 8-oktabrdagi F5598-son "Qatag'on

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. –Toshkent: O'zbekiston, 2020. – 408 b.

qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoyishi hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda jadidchilik harakatini ta'limiy, tarixiy, madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi faoliyati masalalari bir qator olimlar va tadqiqotchilar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Xususan, o'zbek olimlaridan B.Qosimov tadqiqotlarida jadidlar faoliyatining ma'naviy, ijtimoiy, biografik jihatlarini tadqiq etilgan. U.A.Dolimov o'z tadqiqotlarida jadid maktablari va unda til va adabiyot ta'limi masalasini yoritib bergan. N.Afoqova jadid she'riyati poetikasi, S.D.Dolimov, A.Zunnunov, Q.B.Yo'ldoshev, B.To'xliyev, R.X.Niyozmetova she'riy asarlarini o'rganishning o'ziga xosliklari haqida tadqiqotlar olib borgan. S.E.Normamatov, A.Musurmanova, A.I.Murodov, B.X.Xodjayevlar jadidlarning pedagogik faoliyati hamda harakatning yosh avlod ta'lim-tarbiyasidagi jihatlarini; A.Abdazimov, M.E.Inoyatova, D.U.Djurayev, Sh.A.Abdullayevlar pedagogik ta'limotlar tarixini, ma'rifatparvarlarning pedagogik merosini o'rganish yuzasidan tadqiqotlar olib borishgan. A.B.G'ulomov, G.T.Mahmudova, N.Ubaydullayeva, X.S.Ashurova, D.A.Alimova, D.M.Jamalova, H.Z.Ziyoyev, N.A.Abduazizova, R.Sharipov ishlarida Turkistonda jadidchilik harakatining ijtimoiy-tarixiy xususiyatlari tadqiq qilingan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlarining tadqiqotlarida Turkistonda jadid harakatining shakllanishi hamda mintaqa xalqlarining ta'lim tarbiyasi, pedagogik faoliyati masalalari G.S.Sultangalyeva, N.A.Kazbekova, A.E.Kubatovalar tomonidan tadqiq etilgan. D.M.Usmanova, A.X.Basirov, Y.G.Abdullin, N.U.Gaffarov, R.Xodizoda, I.V.Pogorelskiylarning tadqiqotlarida jadidchilik harakatiga siyosiy-mafkuraviy kuch sifatida baho berilgan. Ushbu tadqiqot ishlari jadidchilik harakatini nazariy jihatdan talqin qilgani bilan qimmatlidir.

Jahon olimlaridan S.Beker, G.Uiler, E.Bekon, A.Benigson, E.Oulvorz, J.Kastane va boshqa olimlarning ishlarida Turkistondagi jadidchilik harakati keng ko'lamda tadqiq etilgan. Amerikalik metodist H.Uidouson adabiyot darslarini yanada jonli va qiziqarli qilishga doir nazariy-metodologik izlanishlarni olib borgan. M.Benton, R.Karter va boshqalarning tadqiqotlarida esa she'riy asarlarni o'quvchi yoshlarga o'rgatishning pedagogik va psixologik ahamiyati haqida izlanishlar olib borishgan. Ammo qayd etilgan ishlarda, maktab ta'lim tizimida, aynan adabiyot darslarida jadid adabiyoti namoyandalarining ijodini, xususan, lirik asarlarni o'rganishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan emas.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2021–2023-yillarda amalga oshirilgan P3-202004165 – "Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki

va yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi elektron platforma yaratish” nomli grant loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi adabiyot darslarida jadid shoirlari, xususan, Abdulla Avloniy va Hamza Hakimzoda Niyoziy she’riyatidagi ijodiy individuallik, badiiy mahorat, shakliy va uslubiy izlanishlarni o‘quvchilarga o‘rgatish, mazkur mavzularni o‘qitish metodlarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarga jadid she’riyatini o‘rgatish orqali ularda vatanparvarlik va ma’rifatparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatishning pedagogik-psixologik xususiyatlari va omillarini aniqlashtirish;

adabiyot darslarida jadid shoirlari she’rlarini o‘qitish usullarini tashkiliy-metodik jihatdan tizimlashtirish va didaktik ta’minotini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

umumta’lim maktablari adabiyot darslarni interfaol tarzda olib borish, o‘quvchilarning ijodiy faolligi va dars samaradorligini oshirish;

maktablarda Abdulla Avloniy va Hamza Hakimzoda Niyoziy she’rlariga bag‘ishlangan adabiyot mavzularni texnologiyalashtirish va loyihalashtirishga doir usul va yondashuvlar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida umumta’lim maktablari o‘quvchilariga jadid shoirlarini ijodini o‘rgatishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Urganch, Toshkent, Farg‘ona shaharlaridagi maktablarning 461 nafar 5- va 7-sinf o‘quvchilari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmeti umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarga jadid she’riyatini o‘qitish jarayonining mazmuni, shakl, metod, vositalari hamda pedagogik jarayon modeli.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida muammoga oid adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o‘rganish, DTS, o‘quv rejalari va dasturlari, darslik va metodik qo‘llanmalarni tahlil qilish, ijtimoiy-pedagogik (kuzatish, suhbat, anketa, so‘rov) va pedagogik tajriba-sinov, monitoring va natijalarni matematik-statistik qayta ishlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jadid she’riyatining shakllanishi va uning ma’rifiy g‘oyalarining rivojlanishdagi tarixiy pedagogik shart-sharoitlar XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi muhitni she’riyatning A.Avloniy (tarbiya-insoniyat-madaniyat) va H.H.Niyoziy (vatan-hurriyat-milliy birlik) yo‘nalishlariga simulyativ birligini ta’minlash, o‘qitishning qiyosiy tipologiyasi, metodologik vositalari, uslub va shakllarini diagnostik baholash asosida aniqlashtirilgan;

jadid she’riyatini o‘qitishda raqamli va multimedia vositalarining didaktik-metodik jihatlari o‘quvchilarda qiziqish va tahlil ko‘nikmalarini Avloniyning “Vatan”, “Chin do‘st” va Niyoziyning “Jonlarning jononi Vatan” she’rlaridagi vatanparvarlik, millatlararo totuvlik, gumanizm g‘oyalariga mos intensivligini ta’minlash, milliy mental xususiyatlarini ta’lim-tarbiya mazmuniga integrativ-vizual amaliy uslublar orqali singdirish asosida takomillashtirilgan;

umumta'lim maktablarining 5-7-sinflarida jadid she'riyatini o'qitish metodikasi o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirishda namoyandalarning sinergetik, akmeologik va aksiologik yondashuvlarini kompleks qo'llash, pedagogik qarashlarini produktiv, progressiv, empirik darajalariga ta'lim-tarbiya identifikatsiyasi konstruksiyasining refleksivligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

umumta'lim maktablarining 5-7-sinflarida jadid she'riyatini o'qitish samaradorligi jadid namoyandalarning ma'naviy merosini kreativ fikrlash va ijodkorlikni atributiv kategoriyalar orqali uslubiy-metodik jihatdan kompleks ta'minlash, o'quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirish omillari o'qitishning interfaol texnologiyalarini qo'llash asosida oshirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jadid she'riyatining shakllanishi va uning ma'rifiy g'oyalarining rivojlanishdagi tarixiy shart-sharoitlar pedagogik jihatdan tahlil qilingan va metodologik vositalar, uslub va shakllari aniqlashtirilgan;

jadid she'riyatini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar asosida raqamli va multimedia vositalarining didaktik, metodik jihatlari ochib berilgan hamda she'rlardagi gumanizm g'oyalarini milliy mental xususiyatlarining ta'lim-tarbiya mazmuniga integrativ uslublar orqali singdirish asosida takomillashtirilgan;

jadid namoyandalarning pedagogik qarashlardagi ta'lim-tarbiya identifikatsiyasini takomillashtirish bilan bog'liq konstruksiyasining motivatsion, kognitiv, analitik-tahliliy va refleksiv mezonlari ochib berilgan;

jadid namoyandalarning ma'naviy merosi asosida o'quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirishuvchi bilim, kreativ fikrlash va ijodkorlik singari atributiv kategoriyalari uslubiy-metodik jihatdan takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi mamlakatimiz hamda jahon olimlarning ilmiy-nazariy, metodologik qarashlariga asoslangani; muallif tomonidan nashr qilingan tezis va maqolalar, ilmiy jurnallardagi tadqiqotlarning tegishli muassasalar tomonidan tasdiqlangani va dissertatsiya vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot metodlari qo'llanilgani; jadid she'riyatini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning tahlili amalga oshirilgani va maxsus tavsiyalar ishlab chiqilgani; dissertatsiyada ilgari surilgan amaliy taklif, tavsiya hamda xulosalarning asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati tahlilga tortilgan she'rlar misolida jadid shoirlarining mahorati masalasiga doir ilmiy xulosalardan adabiyot o'qitish metodikasi, o'zbek adabiyoti, she'riy asarlar poetikasi va adabiyot nazariyasi masalalari hamda pedagogikaga oid tadqiqotlarda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati oliy ta'lim tizimidagi "Yangi o'zbek adabiyoti", "Adabiyot o'qitish metodikasi", "Pedagogika" kabi fanlardan darslik, o'quv qo'llanmalar yaratishda yordamchi material sifatida hamda adabiyot o'qituvchilari uchun seminar va maxsus kurslarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Umumta'lim maktablarining 5-7-sinflarida jadid she'riyatini o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

umumta'lim maktablarida Adabiyot darslarida jadid she'riyati namunalarini o'qitishda bola ruhiyati va qiziqishiga uyg'un holda jadid she'riyatidan asarlar tanlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning metodik imkoniyatlarini tizimli shakllantirish, pedagogik imkoniyatlari zamonaviy mutaxassislarning ilg'or g'oyalari bilan o'zaro uyg'unlashtirish va bu orqali o'quvchilarda badiiy tafakkurni rivojlantirish asosida takomillashtirilgan tadqiqot natijalaridan davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi bajarilishi 2021-2023-yillarga mo'ljallangan IL-402104474 "“bolalaradabiyoti.uz” elektron platforma va uning mobil ilovasini yaratish” amaliy loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 26-avgustdagi № 01/4-3736-sonli ma'lumotnomasi). Natijada umumta'lim maktablarida Adabiyot darslarida jadid she'riyati namunalarini o'qitishda o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda “Qarama-qarshi bahs”, “Mind's Eye” (Aqlning ko'zi) texnologiyalaridan foydalanish izchil va tizimli yo'naltirish orqali takomillashtirilgan, o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini adabiyot o'qitish orqali rivojlantirish mazmuni an'anaviylik va zamonaviylik tamoyillariga ko'ra takomillashtirilgan;

o'zbek tili va adabiyoti darslarida fanga doir nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish usullarni takomillashtirish bilan bir qatorda o'quvchilarni mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatga o'z yechimini taklif qilishga o'rgatish yo'llari aniqlangan va bu jarayonda fanga oid nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini shakllantirish usullarini takomillashtirish jarayonida turli metod, usul va texnologiyalardan foydalanishda nazariyadan amaliyotga tamoyili afzal ekanligi isbotlanganligi Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2021-2023-yillarda amalga oshirilgan P3-202004165-“Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki va yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi elektron platforma yaratish” nomli grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 27-avgustdagi № 01/4-3786-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, o'zbek tili va adabiyotiga doir nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish usullarini takomillashtirishning mazmun, usul, vositalarini ishlab chiqishni takomillashtirish keng yoritilgan;

fanga oid nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini shakllantirish usullarini takomillashtirish jarayonida turli metod, usul va texnologiyalardan foydalanishda nazariyadan amaliyotga tamoyili afzal ekanligi isbotlashga oid takliflar 2021-2023-yillarda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan IL-402104474 ““bolalaradabiyoti.uz” elektron platforma va uning mobil ilovasini yaratish” amaliy loyihasida foydalanilgan. Natijada, o'zbek tili va adabiyotiga doir nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish samaradorligi oshgan;

umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarga jadid she'riyatini o'rgatish orqali ularda vatanparvarlik va ma'rifatparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatishning pedagogik-psixologik xususiyatlari va omillarini aniqlashtirishga oid fikr mulohazalardan Xorazm viloyati teleradiokanalining 2025-yil 7-yanvar kuni efirga uzatilgan “Assalom, Xorazm” dasturida hamda 2025-yil 3-fevral kuni efirga uzatilgan “Mavzu tafsiloti” radioeshittirishida foydalanilgan (Xorazm viloyati teleradiokanali davlat muassasasining 2025-yil 3-sentabrdagi №713-sonli ma'lumotnomasi). Natijada

jadidchilikning ta'lim-tarbiyadagi ahamiyati va adabiyot darslarida jadid she'riyati o'qitilishi samaradorligini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 14 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlardan 6 ta ilmiy maqola, 2 ta xorijiy maqola va 2 ta respublika konferensiya to'plamlarida chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, asosiy qism 144 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, usullari tavsiflangan, tadqiqot obyekti, predmeti aniqlangan, ishning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Jadid she'riyatini o'qitishning ilmiy-nazariy va metodik asoslari**" deb nomlanib, unda jadid she'riyatining shakllanishi va uning ma'rifiy g'oyalari, umumta'lim maktablarida jadid she'riyatini o'rganishning ta'limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari va jadid she'riyatini o'qitishda yangi yondashuvlarning imkoniyatlari ochib beriladi.

XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida yuz bergan keskin o'zgarishlar milliy adabiyot taraqqiyotida sifat jihatidan yangi bosqichni yuzaga keltirdi. Ana shu tarixiy sharoitda shakllangan jadid she'riyati an'anaviy mumtoz adabiyot bilan uzviy aloqada bo'lgan holda, mazmun va vazifa jihatidan yangi ma'rifiy-estetik paradigmani qaror toptirdi. Jadid shoirlari uchun she'riyat endilikda faqat individual estetik tajriba emas, balki jamiyatni uyg'otishga qaratilgan ijtimoiy-ma'naviy va pedagogik faoliyat shakliga aylandi.


Jadid she'riyati muammosi zamonaviy adabiyotshunoslikda turli nazariy yondashuvlar asosida talqin etilgan. Xususan, xorijiy tadqiqotlarda jadidchilik harakati va uning adabiy ko'rinishlari madaniy modernizatsiya, milliy ongning shakllanishi kontekstida o'rganiladi. E.Olvort, A.Bennigsen, H.Komatsu, A.Khalid kabi olimlar jadid adabiyotini Sharq jamiyatlarida yuz bergan intellektual uyg'onish jarayonining muhim bo'g'ini sifatida baholab, unda adabiyotning ma'rifiy va islohotchi sifatidagi vazifasiga alohida e'tibor qaratadilar. O'zbek adabiyotshunosligida esa jadid she'riyati masalasi asosan milliy uyg'onish, ijtimoiy ong va badiiy tafakkur yangilanishi nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan. O.Sharafiddinov, B.Qosimov, U.Normatov, N.Karimov, I.G'afurov singari olimlar jadid ijodkorlari merosini XX asr o'zbek adabiyotining

konseptual poydevori sifatida baholab, ularning she'riy tafakkurida ma'rifat g'oyasi markaziy o'rin tutishini qayd etadilar. Xususan, B.Qosimov jadid adabiyotini "jasorat, ma'rifat va fidoyilik" birlikda namoyon bo'ladigan milliy uyg'onish hodisasi sifatida talqin qiladi.

Jadid she'riyatining shakllanishini umumiy "mustamlaka davri mahsuli" sifatida izohlash ilmiy jihatdan yetarli emas. Masala shundaki, Turkiston XIX asr oxiri – XX asr boshlarida nafaqat siyosiy qaramlik, balki institutsional ma'rifat inqirozi holatiga tushib qolgan edi. XIX asr oxirida Turkistonda savodxonlik darajasi 19,55 foizdan oshmagan, davlat byudjetidan xalq ta'limiga ajratilgan mablag' esa minimal darajada bo'lgan. Bu fakt jadid she'riyatining paydo bo'lishini estetik ehtiyojdan ko'ra ijtimoiy majburiyat bilan bog'lash zarurligini ko'rsatadi. Aynan shu omil jadid she'riyatini XX asr o'zbek adabiyotida sifat jihatidan yangi hodisa ekanligini ajratib ko'rsatishga imkon beradi.

Jadid shoirlari ijodida ilm, jaholat, loqaydlik, jamiyat va shaxs masalalarining ochiq qo'yilishi o'quvchini tayyor xulosalarga emas, balki savol berishga, muammoli vaziyatni anglashga undaydi. Bu esa adabiy ta'limda matnni yodlashdan ko'ra, uni tushunish va baholashga yo'naltirilgan zamonaviy didaktik yondashuvlarga mos keladi. Jadid she'riyatini maktab ta'limida izohli o'qish, muammoli savollar va matn asosida bahs yuritish orqali o'rganish o'quvchining estetik didini rivojlantirish bilan birga, unda jamiyatga befarq bo'lmaslik, ilmga mas'uliyat bilan qarash kabi fuqarolik fazilatlarini shakllantirishga imkon beradi. Shu jihatdan jadid she'riyati maktab adabiy ta'limida tarixiy meros emas, balki bugungi kun bilan muloqot qiladigan tirik badiiy manba sifatida qaralishi lozim.

Badiiy tahlil – matnning tashqi shakli, ichki mazmuni, g'oya va badiiy ifoda vositalari, obrazlar tizimi, kompozitsion tuzilishi va estetik ta'sir kuchini izchil o'rganish demakdir. Bunday yondashuv o'quvchini matnga chuqur kirib borish, undagi yashirin g'oyalarni anglash, muallifning estetik qarashlarini tushunish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishiga xizmat qiladi. O'quvchi faqat mazmunni aytib beruvchi emas, balki matnga faol subyekt sifatida kirishuvchi bo'lishi zarur. O'quvchilarni badiiy tahlilga o'rgatish uzluksiz, bosqichma-bosqich olib borilishi kerak bo'lgan murakkab jarayondir (1-rasmga qarang).



1-rasm. Badiiy tahlil ko'nikmalarini shakllantirish bosqichlari

San'atning mazmuniy va estetik qamrovi vaqt o'tishi bilan yanada chuqurlashib boradi. Taniqli rus pedagogi L.S.Vigotskiy ushbu hodisani quyidagicha izohlaydi: "San'atning ta'sirchanligi uning yaratilish onidan emas, balki keyingi bosqichlarda namoyon bo'luvchi kechikkan estetik ta'sir fenomeniga asoslanadi". Ushbu nazariya badiiy asarning vaqtdan mustaqil holda turli sotsial-kognitiv kontekstlarda qayta talqin qilinishini anglatadi. Shunday qilib, badiiy tahlil jarayoni statik emas, balki dinamik va kontekstual xususiyatga ega bo'lib, u har doim yangi tadqiqiy metodologiyalar yordamida rivojlantirilishi lozim.

Hans-Georg Gadamer va Paul Ricoeur nazariyalariga asoslangan germenektika – jadid asarlarini tahlil qilishda alohida o'rin tutadi. Jadid ijodkorlarining ko'plab asarlari zamonaviylikni qadriyat va an'analar bilan uyg'unlashtirishga intilgan, shu bilan birga ijtimoiy ongini yangilash, shaxsiy erkinlik va milliy o'zlikni shakllantirishga xizmat qilgan. Gadamerning "ufqlar birligi" konsepsiyasi asosida jadid matnini bugungi o'quvchi tajribasi bilan dialogga kiritish mumkin. Bu yondashuv asarning zamonlar oralig'ida ma'no hosil qilish salohiyatini tan oladi. Shuningdek, Paul Ricoeurning "matnni o'qish – bu har safar yangi ma'no yaratishdir" degan g'oyasi jadid matnlarning kontekstual va qadriyatga yo'g'rilgan tuzilmasini talqin qilishda muhim vosita bo'la oladi. Masalan, bu usulni Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Jonlarni jononi Vatan" she'ri misolida yanada chuqurroq tahlil qilish mumkin:

*Vatan, vatan der edilar, na der erdim bilmay ani,
Endi bilsam Vatan erkon bu tanlar(n)ing shirin joni...*

Bu satrda shoir o'zining yoshligida "Vatan" so'zining haqiqiy ma'nosini anglamaganini, lekin endi uni chuqur his qilayotganini ifodalaydi. O'quvchi bu satrni o'qib, o'zining Vatan haqidagi tushunchalari bilan bu matnni birlashtiradi. Masalan, bugungi kunda yashayotgan o'quvchi uchun Vatan, o'zining yurtiga bo'lgan muhabbat, uning tarixi va madaniyati bilan bog'liqdir. Bu jarayonda o'quvchi va matnning "ufqlari" birlashib, yangi ma'no hosil bo'ladi. Paul Ricoeurning bu g'oyasi, matnni har o'qishda yangi ma'no hosil qilish imkoniyatini ta'kidlaydi. O'quvchi har safar o'zining yangi tajribasi va konteksti asosida matnni yangicha talqin qiladi. Jumladan, yuqoridagi she'rning davomida:

*Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni Vatan,
Sensan, bale, bilganlara jonlarni jononi Vatan!*

Bu satrda Vatanning ahamiyati va uning inson uchun qanday muqaddas ekanligi ifodalanadi. O'quvchi bu satrni o'qib, o'zining Vatan haqidagi tushunchalari bilan bog'lab yangi ma'no hosil qiladi. Masalan, bir o'quvchi uchun Vatan, oilasi va yaqinlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin, boshqasi uchun esa Vatan, ozodlik va mustaqillik ramzi bo'lishi mumkin. Bu jarayonda har bir o'quvchi o'zining shaxsiy tajribasi asosida matnni yangi ma'noda talqin qiladi.

Roland Barthes va Jerard Jenet taklif etgan struktural tahlil modeli jadid adabiyotining ichki semantik va narrativ tuzilmasini anglashda samaralidir.

Adabiyotshunos olim Q.Yo'ldoshevning fikrlari alohida e'tiborga loyiqdir. U lirik turning o'ziga xos xususiyatlarini quyidagicha izohlaydi: "Lirik turdagi asarlar uchun asosiy narsa tuyg'u va hissiyotga yo'g'rilgan hayotiy hikmat ifodasini berishdi. Lirikada voqealar tasviri yoki xarakter mantig'i emas, balki ruhiy holat tasviri, hissiyot ifodasi, tuyg'ular samimiyati muhimdir". Bu fikr lirik janrni faqat voqelik tasviri yoki

syujet asosida emas, balki inson qalbining ichki dunyosini aks ettiruvchi estetik hodisa sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Demak, lirik janrni o'qitish faqat matn ustida ishlash emas, balki inson qalbini anglashga yo'naltirilgan murakkab va muhim pedagogik jarayondir.

Dissertatsiyaning **“Jadid she'riyatini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobda jadid she'riyatini o'qitishda zamonaviy yondashuvlarning o'rni va roli, raqamli va multimedia vositalari asosida she'riy matnni tahlil qilish usullari, interfaol ta'lim texnologiyalari va metodikasi yordamida o'quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirish masalasi tadqiq etiladi.


Jadid adabiyotining yirik vakillari Abdulla Avloniy va Hamza Hakimzoda Niyoziyning she'rlari ana shunday o'quv-tarbiyaviy imkoniyatlarga egadir. Ularning asarlari milliy uyg'onish, ma'rifatparvarlik va ozodlik g'oyalari o'zida mujassam etib, bugungi kunda ham yosh avlod tarbiyasida dolzarbligini yo'qotmagan. Shu bois umumta'lim maktablarida bu ikki adib ijodini o'qitish jarayoniga alohida metodik yondashuv talab qilinadi. Ularning ma'rifatparvarlik g'oyalari shaxsiy hayot tarzi, ijtimoiy faollik va madaniy identifikatsiya jarayonida qanday rol o'ynaganini bilish o'quvchilarning mavjud tarixni bir tomonlama emas, balki ko'p jihatli tizim sifatida idrok etishga xizmat qiladi.

5-sinf adabiyot darslarida Abdulla Avloniy ijodini o'rganishda interfaol texnologiyalar o'quvchilarning matn ustida mustaqil ishlash, undagi ma'no qatlamlarini ochish va o'z hayotiy tajribasi bilan bog'lash ko'nikmalarini shakllantirishda samarali hisoblanadi. Avloniy she'rlarini tahlil qilishda, avvalo, asar mazmuni o'quvchiga sodda, ravon til bilan tushuntiriladi, so'ngra mazmuniy savollar orqali o'quvchilar matndan asosiy g'oyani ajratib olishga yo'naltiriladi. Masalan, “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridagi she'rlardan parchalarni o'qishda o'quvchilar A.Avloniy ilgari surgan axloqiy fazilatlarini real hayotdagi misollar bilan bog'lab sharhlashga harakat qiladi. Interaktiv metod sifatida “Ma'no doirasi” va “G'oya xaritasi” usullaridan foydalanish mumkin: bunda o'quvchilar she'rda uchraydigan asosiy tushunchalarni markazga yozib, uning atrofida shu tushunchaga bog'liq his-tuyg'ular, voqealar yoki shaxsiy kuzatuvlarini joylashtiradilar.

Antropologik yondashuvda tarixiy-etnografik materiallar, arxiv hujjatlari, zamondoshlarning xotiralari, matbuot manbalari va badiiy asarlarning mazmuniy tahlili birgalikda qo'llanadi. Ushbu jarayon o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, dalillarga asoslangan baholash madaniyati, ilmiy muloqotga tayyorgarlik va turli amaliy tadqiqotlarda faol ishtirok etishni rag'batlantiradi. Masalan, Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodini o'qitishda antropologik yondashuvdan foydalanish, o'quvchilarning muallif shaxsini tarixiy-madaniy jarayonlar kontekstida chuqur anglashini ta'minlaydi. Bu jarayonda dars strukturasi faqat matn tahliliga qaratilmay, balki muallifning yashagan davri, madaniy muhiti, ijtimoiy faoliyati, shaxsiy hayot tajribasi va badiiy asarlaridagi g'oyaviy qatlamlarni bir butunlikda ochib berishga yo'naltiriladi.

Jadidlar ijodini o'qitishda antropologik yondashuvning afzalligi shundaki, o'quvchi yozuvchining hayoti va ijodini faqat faktlar yig'indisi sifatida emas, balki o'z davrining ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma'naviy muhitida talqin qiladi. Shu orqali ular matnni faqat o'qibgina qolmay, unda ifodalangan g'oyalarni shaxsiy hayot tajribasi

bilan bog‘laydi. Bu esa mustaqil tahlil, empatiya va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Jadidlar ijodini antropologik yondashuv asosida o‘qitish usullari


Nazariy jihatdan, raqamli adabiy tahlil tushunchasi she‘riy matnni faqat yozma shaklda emas, balki ovoz, tasvir va harakat orqali idrok etish imkoniyatiga tayanadi. She‘r – tabiatan ritm, intonatsiya va pauza bilan bog‘liq badiiy hodisa bo‘lgani sababli, uni faqat ko‘z orqali o‘qish emas, balki eshitish va vizual kontekstda ko‘rish ham tahlilning muhim tarkibiy qismiga aylanadi.

Metodik nuqtayi nazardan, raqamli tahlil an’anaviy adabiy tahlilni inkor etmaydi, balki uni to‘ldiradi. Masalan, she‘r mazmunini tushuntirish o‘rniga, o‘quvchiga matn ustida mustaqil savol qo‘yish, asosiy g‘oyani vizual belgilar yordamida ajratish, ohang va kayfiyatni audio vositalar orqali solishtirish taklif etiladi. Bu jarayonda o‘qituvchi tayyor xulosa beruvchi emas, balki muhokamani yo‘naltiruvchi rolini bajaradi. Natijada o‘quvchi she‘rni eslab qolishga emas, uni anglashga va baholashga o‘rganadi.

She‘riy matnni raqamli muhitda tahlil qilishda multimodal yondashuv muhim metodik asos hisoblanadi. Multimodal yondashuv she‘rni yagona yopiq matn sifatida emas, balki turli belgilar tizimi – so‘z, tovush, obraz va kontekstlar majmui sifatida ko‘rishga imkon beradi. Bu, ayniqsa, ma‘rifatparvarlik ruhidagi she‘riyat uchun muhimdir, chunki bunday matnlarda murojaat, chaqiriq va baholash ohangi yetakchi o‘rin tutadi.

Avloniy she‘riyatini raqamli va multimedia vositalari asosida tahlil qilishda metodlar bir-birini inkor etmaydi, balki izchil ketma-ketlikda qo‘llanadi: avval audio-o‘qish orqali ohang aniqlanadi, so‘ng vizual ajratish yordamida g‘oya va baholovchi


birliklar belgilanadi, yakunda esa muammoli savollar orqali matn mazmuni muhokama qilinadi. Bu jarayonni quyidagicha tasvirlash mumkin (3-rasmga qarang):



3-rasm. A.Avloniy she'riyatini raqamli muhitda tahlil qilish bosqichlari

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, vizual tahlil, multimediali taqdimotlar, raqamli hikoyalash, interfaol muloqot platformalari – mazkur jarayonning samaradorligini sezilarli oshiradi. Ular o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirib, dars jarayonini ko'proq hayotiy, interfaol va ijodiy muhitga aylantiradi. Bundan tashqari, texnologiyalarning moslashtirilgan qo'llanilishi yoshga xos psixologik xususiyatlarni hisobga olishga, o'quvchini ortiqcha yuklamaslikka va motivatsiyani doimiy yuqori darajada ushlab turishga xizmat qiladi. Bir so'z bilan aytganda, Avloniy va Hamza ijodini umumta'lim maktablarida o'qitishda yondashuvlar xilma-xilligi, texnologiyalar uyg'unligi va metodik pishiq ishlanganligi ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Natijada, o'quvchi faqat ma'lumot egasi emas, balki ma'rifatli, tahliliy fikrlashga qodir, badiiy didi yuksak shaxs sifatida shakllanadi.

Biz yuqoridagilarni inobatga olgan holda Abdulla Avloniy va Hamza Hakimzoda Niyoziy she'riyatini o'rganish bo'yicha pedagogik modelini ishlab chiqdik.



4-rasm. Abdulla Avloniy va Hamza Hakimzoda Niyoziy she'rlarini zamonaviy metodika asosida o'qitish bo'yicha model

Dissertatsiyaning “**Zamonaviy texnologiyalar asosida jadid she’riyatini o‘qitish samaradorligini tajriba-sinov orqali aniqlash**” deb nomlangan uchinchi bobda ikkita masala atroflicha tahlil qilingan:

1. Tajriba-sinov ishlarining tashkil etilishning metodik asoslari, mezonlari va baholash ko‘rsatkichlari.

2. Tajriba-sinov natijalarining tahlili va metodik tavsiyalar.

2022/2025-yillarda tajriba-sinov ishlari keyingi bosqichlarda izchil davom ettirildi. Mazkur jarayon Xorazm viloyati Urganch shahridagi 19-maktab, Farg‘ona viloyati Farg‘ona tumanidagi 63-maktab, Toshkent shahri Mirobod tumanidagi 154-maktablarda amalga oshirilib, jami 461 nafar 5-7-sinf o‘quvchisi jalb qilindi. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalar ishlab chiqildi, o‘quvchilar esa badiiy tahlil asosida kichik ilmiy-tadqiqot ishlari tayyorlashga o‘rgatildi. Bu davrning bosh maqsadi – adabiyot ta’limida, ayniqsa, jadid shoirlari ijodini o‘qitishda o‘quvchilarda badiiy tahlil ko‘nikmalarini mustahkamlash, ularni tadqiqotchilik faoliyatiga faol jalb etishdan iborat bo‘ldi.

Tajriba-sinov ishlari uchun uch bosqichli model ishlab chiqildi. U metod, usul, pedagogik texnologiyalar, ta’limning noan’anaviy shakllari va zamonaviy o‘quv vositalarini qamrab oldi. Ta’lim muassasalari hududiy kesimda tanlab olinib, o‘quvchilar tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Natijada o‘quvchilarni jadid she’riyati va badiiy tahlilga tizimli yo‘naltirish metodikasi samaradorligi amalda tasdiqlandi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

5- va 7-sinf o‘quvchilarining jadid she’riyati asosida badiiy tahlil malakasini shakllantirish bo‘yicha tajriba-sinov jarayonida ishtirok etgan guruh va o‘quvchilar soni

Tajriba-sinov o‘tkazilgan hududiy maktablar	Sinflar	Tajriba guruhlari	Nazorat guruhlari	Jami
Toshkent shahri Mirobod tumanidagi 154-maktab	5-sinf	54	56	110
	7-sinf	55	57	112
Farg‘ona viloyati Farg‘ona tumanidagi 63-maktab	5-sinf	31	32	63
	7-sinf	29	31	60
Xorazm viloyati Urganch shahridagi 19-maktab	5-sinf	29	30	59
	7-sinf	28	29	57
Jami	5-sinf	114	118	232
	7-sinf	112	117	229
	5-7-sinf	226	235	461

Tajriba-sinov ishlari davomida 5-7-sinf o‘quvchilarining jadid shoirlari she’rlarini o‘zlashtirish jarayoni nazorat qilindi. Olingan xulosalar tajriba-sinov ishlarining ilmiy, pedagogik, texnologik va metodik jihatdan to‘g‘ri olib borilganini tasdiqlaydi. Ta’kidlash joizki, tajriba-sinov davrida olingan natijalarni yanada ishonchli baholash uchun “Styudent-t usuli” qo‘llandi. Mazkur usullar yordamida ikki guruhda qayd etilgan ko‘rsatkichlarni aniqlash, taqqoslash va obyektiv baholash imkoniyati yaratildi. Matematik-statistik metodning mohiyatiga ko‘ra, dastlabki bosqichda tajriba va nazorat guruhlarida qayd etilgan natijalar tahlil qilinib, ular yuqori, o‘rta va past darajalar bo‘yicha variatsion qatorlarga ajratildi. Bu orqali

o'quvchilarning jadid shoirlari she'rlarini o'zlashtirish darajasida kuzatilgan farqlar aniqlandi.

Ushbu olingan natijalarning va keltirilgan xulosalarning haqqoniyligini aniqlash va ko'rsatib berish maqsadida statistik tahlil ishlari Student-t kriteriyasi (Student-t testi) asosida tashkil qilindi. Tajriba va nazorat guruhlarining o'zlashtirishlarini taqqoslash maqsadida guruhlardagi o'zlashtirish bahosining o'rtacha qiymati sifatida quyidagi (1) formuladan foydalanildi:

$$X = \frac{\sum x_i m_j}{N} \quad (1)$$

Tajriba sinov ishlarini quyidagi matematika statistik formulalar va samaradorlikni aniqlovchi statistik gipotezalardan foydalanib olib borildi. O'quv jarayoni samaradorligini baholovchi o'rtacha qiymat tajriba va nazorat guruhlarini baholarining o'rtacha arifmetik qiymatlari nisbatidir. Ya'ni samaradorlik koeffitsiyenti quyidagi (2) formula orqali hisoblandi:

